Boshlang'ich sinf o'quvchilari mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish muammosiga yondoshuvlar turlicha bo'lishga qaramay, tadqiqotchilarning asosiy qismi ta'lim jarayonida mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish quyidagilarni o'z ichiga oladi degan umumiy qarashlar mavjud: o'quvchilarda qaralayotgan predmetlarni qiyoslashga, ulardagi o'xshashliklar va farq qiluvchi xususiyatlarini aniqlashga o'rgatish; predmetlarning eng muhim va ikkinchi darajali xususiyatlarini ajratib olishga o'rgatish, o'quvchilarga predmetlarni tarkibiy qismlarga (analiz) bilish maqsadida ajratish, alohida tashkil etuvchi qismlarni yaxlit predmet sifatida birlashtirish (sintez) hamda bu jarayonda qismlar o'rtasidagi munosabatlarni aniqlashga o'rgatish; o'quvchilarga kuzatish va mavjud faktlar asosida to'g'ri xulosa chiqarish, bu xulosalarni tekshirish, ishonarli tarzda isbotlash, yolg'on mulohazalarni inkor qilishga o'rgatish; o'quvchilarning o'z fikr-mulohazalarini ma'lum bir tartib va ketma-ketlikda, asoslangan holda, bir-birini inkor qilmaydigan mulohazalar yordamida bayon qilishlarini nazorat qilish. Shunday qilib, mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish bevosita ta'lim jarayoni bilan bog'liq bo'ladi [2].

Turli o'yinlar davomida namoyon bo'ladigan boladagi mustaqillik asta-sekin tashabbuskorlikka, mulohazalar yuritishda erkinlikka aylanadi. Maktabgacha ta'lim maskanlarida ko'rsatilgan namunalarga taqlid, qoida va ko'rsatmalarga itoat qilish boshlang'ich sinf o'quvchilarida ruhiy



jarayonlarning ihtiyoirligi, hulqi va bilim olishga intilishida tashabbuskorlik hislari rivojlanadi. Bola o'yin vaqtida turli bir xil buyumlar o'rniga boshqalaridan foydalanishga o'rganadi. Buning oqibatida ularda tasvirlarni tushunish, asta-sekin tasavvur, ko'rgan narsalarini qandaydir vositalar yordamida tasvirlash hissi shakllanadi va rivojlanadi. Bu holat asta-sekinlik bilan bolalarda alomatli-belgili faoliyat ko'rsatishga (chizma, sxema, grafik, jadval va modellarni tahlil qilish, tushunish, o'qish, ishlash) aylanadi.

Boshlang'ichsinfo'qishdarslaridaasosanshe'rlar,masallar,ertaklar,hikoyalar,afsonalar,maqollar va topishmoqlar,ilmiy-ommabop asarlar o'qib o'rganiladi. Yuqorida ta'kidlangan metodlardan tashqari, boshlang'ich sinf o'qish darslarida zamonaviy pedagogik texnologiya usullaridan — Aqliy hujum, —Tarmoqlash, —Guruhlar bilan ishlash, —Blits texnologiyasil kabilardan ham foydalanish yaxshi samara beradi.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, har bir darsda qanday metoddan foydalanish, darsda qanday usullarni qo'llash o'qituvchi tomonidan oldindan belgilab olinishi va puxta ishlab chiqilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduroxmonova S. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy fikrlashini o'stirish orqali ijodiy nazorat ishlari samarasini oshirish yo'llari. «Zamonaviy dunyoda ilm-fan va texnologiya» nomli ilmiy-amaliy konferensiya.
2. Abdujalilova, S., Koraev, S. B. (2020). Талабалар илмий дунёкарашини шакллантиришда педагогик технологияларнинг ўрни. Academic Research in Educational Sciences, 1(4), 813-823.



ИНГЛИЗ ТИЛИ ДАРСЛАРИДА АКАДЕМИК ЛИЦЕЙ ЎҚУВЧИЛАРИНИНГ НУТҚИЙ КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ДОЛЗАРБ ПЕДАГОГИК МУАММО СИФАТИДА

Қобилжон Валиев,
НамДУ таянч докторанти

Аннотация: Мазкур мақолада академик лицей ўқувчиларининг инглиз тили дарсларида нутқий компетенциясини ривожлантириш долзарб педагогик муаммо сифатида талқин қилинади.

Калит сўзлар: академик лицей ўқувчилари, касбга йўналтириш, коммуникатив компетенция, нутқий компетенция.

Abstract: This article discusses the development of speaking competence of academic lyceum students in English language classes as an actual pedagogical problem.

Key words: academic lyceum students, guidance, communicative competence, speech competence.

Аннотация: В данной статье рассматривается развитие речевой компетенции учащихся академического лицея на занятиях по английскому языку как актуальная педагогическая проблема.

Ключевые слова: учащиеся академического лицея, руководство, коммуникативная компетентность, речевая компетентность.

Ўзбекистон Республикасидаги ижтимоий-иқтисодий, сиёсий ва илм-фан соҳаларидаги ижобий ўзгариш ҳамда ривожланишлар натижасида ўрта махсус, касб-ҳунар таълимининг мазмун-моҳияти янгиланмоқда. Бу эса мазкур таълим тизимида кичик мутахассисларнинг касбий тайёргарлик сифатини янада яхшилаш зарурлигини таъкидлайди. Мамлакатимизда кичик мутахассис кадрларга бўлган эҳтиёж ва талабларнинг содир бўлаётган жараёнларга таъсири, уларнинг касбий фаолиятга тайёргарлиги ва коммуникатив компетенциясига бўлган талабларнинг ошишини белгилаб берди. Бўлажак кичик мутахассислар ўз касбий фаолияти давомида турли характерга эга одамлар билан мулоқот қилишларига тўғри келади, чунки мулоқот касбий фаолиятнинг мустақил тури бўлиб хизмат қилади. Шунингдек, махсус тайёргарликларга эга бўлган бўлажак кичик мутахассислар хорижий тилларни ўрганишида жиддий қийинчиликларга дуч келмоқда. Бу эса уларнинг касбий ва коммуникатив компетенциясини ривожлантиришнинг жиддий муаммоларини ҳам келтириб чиқармоқда. Ўрта махсус, касб-ҳунар таълими тизимида мазкур қийинчиликларнинг олдини олиш мақсадида, бўлажак кичик мутахассисларнинг касбий ва коммуникатив компетенциясини ривожлантириш мақсадида бир қанча ижобий ишларни амалга оширилиши зарур ҳисобланади. Ҳозирги замон ўрта махсус, касб-ҳунар таълими ижтимоий ва касбий муаммоларни ўзи мустақил равишда ҳал этишга қодир, бир ёки бир нечта хорижий тилларда муомалага кириша оладиган малакали кичик мутахассисларни тайёрлашнинг оптимал йўллари топишга йўналтирилганлиги билан аҳамиятлидир. Юқоридагиларни инобатга олган ҳолда, “компетенция” тушунчасининг моҳиятидан келиб чиқиб, бўлажак касб эгаси ўзи учун етарли билим, кўникма ва амалий тажриба тўплагандан кейингина кўзланган мақсадларга эришиш мумкин.

Академик лицей ўқувчиларини касбга йўналтириб ўқитишда, коммуникатив компетенцияни ривожлантириш даврида уларнинг касбий коммуникатив компетенциясини ривожлантиришнинг когнитив ва фаолиятли компонентлари ҳамда хорижий тилларни ўргатишга қаратилган янги ёндашувлар назарда тутилади, хорижий тил касбий мулоқотнинг воситасига айланиб, тил ўрганишга бўлган қизиқиш янада ортади.

Академик лицей ўқувчиларини касбий фаолиятга йўналтириб ўқитишда уларнинг коммуникатив компетенциясини ривожлантириш жараёнида чет тилини ўрганиш ва ўргатиш етакчи ўрин тутди. Бунда академик лицей ўқувчилар мутахассислиги бўйича чет тилдаги соҳавий матнлар, касбга йўналтирилган керакли ахборот ва мутахассислиги бўйича терминлар, ўқитувчи ва ўқувчиларнинг академик ҳаракатчанлиги, турли илмий манба ва адабиётлардан хорижий муаллифлар келтирган маълумотларни мустақил фойдалана олиши, шунингдек, ахборотли ва коммуникатив қобилиятларга эга бўлишидир.

Академик лицей ўқувчиларининг коммуникатив компетенциясини ривожлантиришнинг ҳозирги босқичида хорижий тилларни касбга йўналтириб ўқитиш улкан аҳамиятга эга



бўлиб, у давлат таълим ўқув меъёрий ҳужжатларида ўз аксини топади. Таълим тизимини модернизациялаш шароитида академик лицей ўқувчиларининг касбий-ижодий тайёргарлиги муаммоси, касбий коммуникатив компетенциясини ривожлантириш жараёнида хорижий тилларнинг ролини ошиб бориши илмий тадқиқотимизнинг долзарблиги ва зарурлиги муҳим аҳамиятга молик эканлигини белгилаб берди.

Бизга маълумки, чет тиллар ўқитиш мазмуни ва уни амалга ошириш жараёни ўзаро боғлиқ ҳисобланиб, ҳозирги пайтда ўрта махсус, касб-ҳунар таълими тизимида чет тилини ўрганиш жараёнида бу муносабатларни амалга ошириш механизмлари етарли даражада очиқ берилмаган. Бу эса, ўқув материалларининг нотўғри мазмуни, уларни тақдим этиш усуллари ва ўқув фаолиятини ташкил этиш шаклларида етарли даражада самарали бўлмаган ўқитиш усулларида фойдаланишга олиб келиши мумкин. Академик лицей ўқувчиларининг “Хорижий тил” бўйича касбий коммуникатив тайёргарлиги жараёнида ўқув салоҳиятининг тўлиқ амалга оширилиши бир қанча сабабларга боғлиқдир:

ҳозирги кунга қадар, академик лицейларда хорижий тилларни ўқитишнинг мазмуни ва хусусиятлари, нутқ фаолиятининг турларига кам эътибор қаратилганлиги, хорижий тилларни касбга йўналтириб ўқитишнинг асосий ёндашувлари ушбу жараёни ташкил этишда педагогик шарт-шароитларни ривожлантиришга қаратилганлиги;

ўрта махсус, касб-ҳунар таълим тизимида ўқувчиларни чет тилларига ўргатишда ижобий тажриба тўпланган аммо, касбий ва соҳавий таълимни ривожланиш босқичида халқаро ва маҳаллий меҳнат бозори эҳтиёжлари асосида касбий таълимнинг асосий ва устувор йўналишларини аниқлашнинг кам ўрганилганлиги;

академик лицейларда хорижий тилларни ўқитиш учун мавжуд назарий асосланганлик даражаси етарлича эмаслиги, чет тилларини ўқитиш жараёнининг илмий-услубий тавсифлари етарлича ишлаб чиқилмаганлиги;

академик лицейларда билим олиш фаолияти ёки таълим тизими тажрибаси, касбий ва ижодий фаолият тажрибаси, ҳиссий ва қиймат муносабатлари тажрибаси кабилар хорижий тилларни ўқитишнинг асосий таркибий қисмлари ҳисобланади. Одатда, академик лицейларда инглиз тили ўқитувчилари фақат биринчи компонентга эътибор беришади. Шунинг учун ўқитиш усуллари нисбатан самарасиз ва ўқувчиларнинг ижтимоий тажрибани тўлиқ ўзлаштирилиши таъминламайди.

Бугунги кунда ўрта масус, касб-ҳунар таълимида хорижий тилларни ўқитиш муаммолари бўйича кўплаб ғоя ва тушунчалар мавжуд. Ўқитишнинг самарадорлиги паст, инглиз тили ўқитувчилари таълим муассасаси йўналишларини ҳисобга олмаган ҳолда, хориж тилларини ўргатишда ўз тажриба ва анъанавий ёндашувларидан фойдаланишга мажбур бўлиб, битирувчи ўқувчиларнинг хориж тилларни ўрганиши бўйича тайёргарлик даражасини сезиларли даражада камайтиради. Бўлажак кичик мутахассислар учун хорижий тилни ўрганишда зиддиятчилик ҳам, коммуникатив компетенциясини ҳам муайян даражадаги эҳтиёж ва бўлажак кичик мутахассисларни касбий тайёрлаш жараёни яхлит тизимининг мавжуд эмаслиги ва хорижий тилларни ўқитиш мазмунини ўзлаштириш учун етарли даражада касбий тайёрлаш тизимини ишлаб чиқилмаганлигидан иборатдир.

Мамлакатимиздаги академик лицейларда ўқувчиларни касбий ва соҳавий тайёргарлик жараёни ҳақидаги фалсафий, педагогик-психологик ва социологик ғояларни таҳлил қилишимиз натижасида унинг моҳиятини аниқлашга икки хил ёндашувни ажратиш мумкинлигини келтириб чиқаради. Биринчи ёндашув бу - шахснинг ривожланиши ва ўз-ўзини ривожланиши билан боғлиқлигини, иккинчиси эса, шахснинг маълум бир касбий фаолият тизимида қўшилиши билан ёки бошқача қилиб айтганда, бу фаолият тизимининг ўзлаштирилиши билан боғлиқдир.

Адабиётлар:

1. Qobil V. Analysis of exercises and assignments aimed at developing the oral speech competence of academic lyceum students in English lessons //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 12. –№. 5. – С. 420-432.

2. Valiev Q. METHODS OF DEVELOPING ORAL SPEECH COMPETENCE IN ENGLISH CLASSES //СОВРЕМЕННАЯ НАУКА: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ, ДОСТИЖЕНИЯ И ИННОВАЦИИ. – 2022. – С. 165-167.



TEKNOLOGIYA DARSLARDA GAZLAMA BILAN ISHLASH TASHKIL ETISH

Xakimova Gulmira Shuxratjonovna

Ikromjonova Maxliyo Ikromjon qizi

Namangan viloyati Norin tuman

19-20 maktab texnologiya fani o'qituvchilari

996196187 gulmiraxakimovna@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqola texnologiya darslarida gazlama bilan ishlash bo'yicha ma'lumotlar berilgan bo'lib. U umumta'lim maktablarini texnologiyafani o'qituvchilariga metodik qo'llanma sifatida foydalanish tavsiya etiladi.

Kalit so'zlar: Gazlama, paxta, xomashyo, tikish, dehqonlar, chorvadorlar, tolali materiallari, tabiiy va kimyoviy, kiyim kechaklar, qizlar, o'g'ilbollar.

Texnologiya darslarida gazlamalarning asosan nimalarga muljallanganligini o'quvchilar bilishi va u bilan ularni tanishtirish, kiyim-kechak, turmushda buyumlardan namunalar ko'rsatish. Buyumlarni tayyorlashda, bajarishda foydalaniladigan asbob uskunalaridan qanday foydalanish kerakligini o'quvchilarga amaliy ko'rsatish bilan birga texnika xavfsizligiga rioya qilishni tushuntirish;

-Tayyor mahsulotni andozalar yordamida bichish, kiyib olish va tikish usullarini o'qitirish;

- Tayyor bichilgan qismlarni tikib biriktirish, chok usullarini amaliy ko'rsatish;

-O'quvchilar gazlamalar bilan ishlash, bichish, tikish tartib va uslublarini puxta o'rganganlaridan so'g'ina amaliy bajarishga o'tish. Mehnat ta'limi darslarida sanchiluvchi, qirkuvchi asbobuskuna borligini, hisobga olib, albatta, mehnat xaltasi tashkil qilishi kerakligini unutmaslik kerak. Chunki, birinchidan, mehnat xaltasiga maxsus cho'ntakchalarni, ignadonni, qaychidonni, turli iplar, gazlamalarni solib qo'yish imkoniyati bo'ladi. Ikkinchidan, mehnat darsiga kerak bo'ladigan narsalar har joga sochilmay, bir joyda, o'qituvchi shkaftida saqlanadi. Uchinchidan, o'quvchi mehnat darsiga to'la qatnashish imkoniga ega bo'ladi. Ba'zilar ko'tarib kelishgandan chuchibmi, unutib qoldirishi mumkin bo'lgan holatlarni oldini oladi. Ma'lumki, birinchi sinf o'quvchilari o'qituvchi rahbarligida o'z hayot tajribalarini ishga solib, gazlamalardan ichki kiyim, ko'ylaklar, palto va kostyumlar, turli bosh kiyimlari, dasturxon va yostiqlar, pardalar, sochiqlar va dastro'mollar, parashyutlar, divan, stullar uchun qoplamalar, poyabzal astarlari, bayroqlar, sumkalar tikilishini aniqlaydilar. Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'qituvchining eng oddiy tajriba ishlaridan asta-sekin ravishda to'qimachilik tolalari, undan tayyorlanuvchi iplar va gazlamalar, turli gazlamalarning tayyorlanish xususiyatlari to'g'risida ko'p yangi va foydali ma'lumotlarni o'rganadilar. Shu tariqa o'quvchilarda to'qimachilik materiallari, ularning asosiy xususiyatlari va ishlov berish usullari to'g'risidagi bilimlar sayqal topa boshlaydi. Bular o'z navbatida esa bolalarda materiallarni bir-biridan farqlash, ulardan to'g'ri foydalanish va ishlov berish malakalari shakllanib boradi. Dastlabki texnologiya darslaridan e'tiboran bolalarda gazlamalarning tuzilishi va tayyorlash usullari bo'yicha ma'lumotlarga asta-sekin ega bo'lib boorish ehtiyojlari sezila boshlanadi. Eng oddiy mahsulotlarda gazlamalar va iplardan foydalanishning elementar masalalarni amaliy hal etishdayoq to'qimachilik tolalari va gazlamalar, ularning texnika, ishlab chiqarish va ayniqsa turmushda, kundalik hayotda qo'llanishi to'g'risida bo'lgan bilimlarni aniqlash va umumlashtirish zarurati paydo bo'ladi. O'quv dasturi o'quvchilarning xotirasini ikkinchi darajali ma'lumotlar bilan to'ldirish emas, balki, ularga tolali materiallardan tayyorlangan gazlamalar to'g'risidagi bilimni to'ldirish va tizimlashtirish ishlarini amalga oshirib borish kerak. Bunda to'qimachilik materiallari (tolalar, iplar, gazlamalar va trikotaj), ulardan foydalanish to'g'risidagi ba'zi ma'lumotlarni, o'quvchilar uyda olishini hisobga olish va esda tutish kerak. Qiz bolalar boshlang'ich ta'limdan keyingi sinflarda ham to'qimachilik materiallari bilan nazariy va amaliy tanishuvni davom ettirishi, o'g'illar esa bu materiallar bilan ishlashni III sinfda tugatishni aytish o'rinlidir. O'quvchilar to'qimachilik materiallari namunalarini ko'rib, ularning sifat xususiyatlari va ishlov berish hamda pardozlashning o'ziga xosligini aniqlashi muhim. Shuning uchun ham oddiy kuzatishlar va tajribalarni tashkil etilish maqsadli bo'ladi. Qaysiki bunday kuzatishlar va tajribalar o'quvchilarni bu materiallarni qog'oz, karton, fanera, metallik folga, plastmassa plyonkalar bilan taqqoslashga yo'naltirish uchun foydali bo'ladi. O'quvchilar e'tiborini u yoki bu materiallar va ulardan tayyorlangan mahsulotlarning qo'llanish sohasi va sharoitlariga qaratish lozim. Birinchi



sinf o`quvchilariga kiyim tayyorlash uchun materiallarni tanlash misolida gazlamalarning alohida xususiyatlariga asosiy talablardagi farqlarni ko`rsatish mumkin. Bu kiyimlarning, mavsumiy (yozgi, qishki va mavsumaro), uy kiyimi, ustki va ichki, sport kiyimi va hokazo bo`lishi, har bir gazlamalarni issiqlik himoyalash xususiyatlari, qalinligi, mustahkamligi, rangi va, albatta, narxi bo`yicha tanlay olish kerakligi o`quvchilarga tushuntirilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Texnologiya fanni o`qitish metodikasi Z.D. Rasulov Sh. H Quliyeva A.R Jo`rayeva Buxora-2020
2. Texnologiya fanni o`qitish metodikasi X. R. Sanaqulov D.P Xodiyeva Toshkent 2018
3. www.ziyonet



PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS OF CREATING A SMART ENVIRONMENT IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Yusupova Zamira Zaripovna

Senior Lecturer, Department of Information and Educational Technologies, TUIT,
Muhammad al-Khwarizmi
Phone: +998909337461

ABSTRACT: This article presents the issues of teaching students the content of SMART educational technology, which is one of the most popular educational methods, using a modern method.

KEY WORDS: Smart education, virtual audience, online teacher, technology.

Modern Decision No. PQ-4537 on measures for the establishment of schools, "Education in the field of information technologies" of the President of the Republic of Uzbekistan "On measures to further improve the system, develop scientific research and integrate it with industry", 06.10.2020 PQ-4851 and the strategy "Digital Uzbekistan - 2030" in order to successfully implement the future generation, together with modern technologies, the use of educational methods that correspond to modern and new world standards is being widely implemented, and many measures are being implemented in educational institutions, in particular, the use of modern ICT opportunities in the course of the lesson, in order to increase the level and content of lessons, modern methods and technologies are widely used. In this article, we will analyze the topic of electronic education, which is currently entering our educational system. We are sure that it is important to bring it up to standard.

At the modern stage of ICT development, there are needs that cannot be satisfied not only by classical educational technologies, but also by electronic education. At the same time, the transition from the e-learning system to Smart (intelligent, observational, dynamic) e-learning and Smart Education is underway. This concept embodies the comprehensive modernization of all processes in the field of education, as well as all methods and technologies used in this process. The concept of Smart forms technologies such as "smart board", "smart screen", and access to the Internet from any point along with it in the educational sector. Each of these technologies enables the content development process to be rebuilt, delivered, and updated. As a result, it will be possible to learn not only in the classroom, but also at home, at work, in public places, and at places of rest. In this case, active educational content comes into play as the main element that evaluates the educational process. Based on it, a single repository will be created that eliminates the barriers of time and space concepts.

According to E.H. Yusupov, smart for students is an environment for each study, individual educational environment, practical direction, independence in the development of knowledge, skills and development - skills that allow adaptation to the social environment, continuous education lim's smart, interdisciplinary, student-oriented educational systems (university, corporate training); customized curriculum, portfolio; collaborative learning technologies; multi-use automation; practitioner training it can be expressed by involving in the educational process. Therefore, the development (modernization) of the education system means that only the latest technological things, such as electronic boards, tablets, telephones, electronic books, smart desks, and computers, should be a suitable educational system for their consistent systematization, Smart education. necessary.

The use of this educational system provides great opportunities for creating new methods and styles in the educational process. Undoubtedly, this requires the teacher to work on himself in educational and research activities, and increases the students' knowledge activity and interests.

In short, as we live in the age of technology, we cannot imagine our every step, our daily life without them, including the education system. The electronic systemization of the education system, together with the acquisition of knowledge in the international framework, makes it possible to educate mature personnel who can meet world standards.



REFERENCES

1. V.P. Tikhomirov. Open education. Scientific and practical journal. Special edition - "Smart technology and education". 2011. No. 3. S. 22-28.
2. Shubina, I.V. Pedagogical design model for future specialists for SMART-obshchestva. Mir education - education in mire. 2015. No. 2 (58). S. 65–73.
3. Dneprovskaya, N.V. Basic concept of smart education. new technology. 2015. No. 6. S. 43–51.



MA'RUZA MASHGULOTLARINI TASHKIL ETISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI

Yusupova Zamira Zaripovna,
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU
katta o'qituvchisi
Телефон: +998909337461

ANNOTASIYA: Bugungi kunda ta'lim tizimini sifatini yanada oshirish va dunyo standartlari darajasiga olib chiqishda ta'lim oluvchilarda motivasion qiziqishlarni shakllantirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Mazkur maqolada ma'ruza mashgulotlari jarayonida talabalarda kreativ yonhashuvchanlikni oshirish, komputer savodxonligini yanada shakllantirish masalasi ochib berilgan.

KALIT SO'ZLAR: tizim, psixologik tushuncha, qonuniyat, prinsip, didaktika

XXI asrda informatsion texnologiyalarni shiddatli rivojlanishi ta'lim jarayonida kompyuter texnologiyari va internet tarmog'idan unumli foydalanishda savodxonlikni yanada muntazam oshirish masalasini qo'yimoqda.

Hozirgi kungacha psixologik bilimlarning manbai xisoblangan darsliklar va o'quv qo'llanmalarni mazmun mohiyatini yangi manbalar bilan boyitish oliy ta'lim muassasalaridagi talabalarni psixologik tushuncha, qonuniyatlar, metodlar va prinsiplarni ilmiy mohiyatini o'zlashtirishlariga asosiy vosita hisoblanadi. Oliy ta'limda bo'lajak o'qituvchilarning psixologik tayyorgarligi ularning ongi, tafakkuri va xotirasida psixologik tushuncha, qoida va prinsiplarning shakllantirish bilan bog'liq. Bu jarayon juda murakkab bo'lib, har bir o'quv mashg'ulotida talaba o'z psixologik lug'at daftarida bir necha psixologik tushuncha va atamalarni ajratgan holda ma'nosini daftarda yozadi. Natijada bu bilimlar va atamalar talaba ongiga chuqur singan holda xotirasida u'zoq vaqt saqlanadi. Psixologik adabiyotlar materiallari asosida ilmiy psixologiyaga doir nazariy masalalarni birgalikda frontal tarzda muhokama qilinadi. Studentlarga o'tilgan mavzularga doir bilimlari, yozgan referatlari, maruzalari muxokama qilinadi. Laboratoriya mashg'ulotlarida studentlar bilan psixologik qonuniyatlarni aniqlashga doir o'tkazilgan amaliy tajribalar orqali ularning psixik xodisalarga tegishli nazariy bilim va tushunchalarni amaliy jixatdan tahlil qilinadi.

Oliy ta'lim muassasalarida taraqqiyot tajribasi shuni ko'rsatadiki, munozarali o'quv jarayonini tashkil etish bugungi davrning asosiy usuli ekanligini tamomila tasdiqladi. Munozarali o'quv mashg'ulotlarining asosiy vazifasi talaba bilimlarining kerakli sohaga yo'naltirib ma'lum fanning yutuqlari, bu fanning echilgan, echilayotgan muammolari bilan tanishtirish va kelgusida u soxalarni mustaqil o'rganishga tayyorlashdan iboratdir. Munozara jarayonida bilimlarni umumlashtirib berish va bilim asoslarini umumlashgan holda egallashning tejamli usulidir. O'quv kursi og'zaki bayon etilganda ko'pchilik talabalar materiallarning asosiy mazmunini osonroq tushunib uning maniqiy tuzilishini, undagi isbot dalillarni yengilroq o'zlashtirib oladilar.

Munozaraga qo'yiladigan talablar quyidagilardir:

1. Didaktika talablari: munozarani ilmiyligi, tarixiyligi, izchilligi, tushunarligi va to'laligi.
2. O'qituvchining bayon etishdagi nutqiga qo'yiladigan talablar.
3. Ko'rgazmalilik, texnika vositalaridan foydalanish.

Fanning talabalar tomonidan mustahkam o'rganishlari uchun qiyin bo'ladigan ayrim qismlari va ayrim mavzulari bo'yicha munozara o'qilganda o'qituvchi eng qiyin materialni osonroq va tushunarli qilib bayon etgan holda talabalarga yordam beradi.

Maruzalarni yangi pedagogik texnologiyaga asoslanib bir necha shaklda tashkil etish mumkin. Pedagogik texnologiya – bu o'qituvchi tomonidan o'qitish vositalari yordamida o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish va bu faoliyat maxsuli sifatida ularda oldindan belgilab olingan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayoni deb ta'riflash mumkin. O'qituvchi talabani «o'qitishi» emas, «o'qishga o'rgatishi» kerak, o'qitishning reproduktiv usuliga evristik yondoshish kerakki, toki talaba har bir darsda o'zining «yangiligini» kashf etsin. Pedagogik texnologiyaga asosan, o'qitishning an'anaviy – monologik usulidan voz kechib, «interaktiv» usul – ya'ni o'qituvchi va talabaning hamkorligiga asoslangan faol usullar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

Ta'lim jarayonida imkon qadar kompyuter texnikasidan samarali foydalanish lozim. Talabalar kompyuter texnikasidan mustaqil foydalanishi natijasida erkin fikrlashni o'rganishi orqali mantiqiy



fikrlari rivojlanadi. Pedagogik jarayonni tashkil etishga yangicha yondoshish talabalar faoliyatini, mustaqil va ijodiy fikrlashini faollashtiradi.

Maruzalarni quyidagi shakllarda tashkil etish mumkin:

1. Maruza – konferentsiya tipidagi dars.
2. Muammoli ta'lim.
3. Maruza – munozara.
4. Kompyuterlashgan ta'lim (maruza matnlarining kompyuter nusxasi)
5. Masofali o'qitish.
6. Internet tizimidan foydalanish.

Maruzalarni bir necha xil usulda, ya'ni aralash usulda tashkil etgan maqsadga muvofikdir.

Bunda:

1. Talabani mustaqil fikrlashi rivojlanadi.
2. Muammolarni hal etishda har bir talabani mas'uliyati oshadi.
3. Talabani og'zaki va yozma nutqi rivojlanadi.
4. Mavzularni yaxshi esda olib qolishga yordam beradi.
5. Ilmiy – nazariy tushunchalarni o'zlashtiradi.
6. Talaba mustaqil ravishda savollar to'zishga urganadi va x.k.

Leksiya – konferentsiya tipidagi dars – ta'lim tarbiyaviy xarakterga ega bo'lishi lozim – ya'ni ta'lim orqali talabalarda dunyoqarashni tarbiyalash, hayotiy muammolarni hal etishga tayyor bo'lish ruhida tarbiyalash, ishlab chiqarishga, pedagogik faoliyatga tayyorlash kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. SH.S.Shodmonova va boshqalar. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik T.- 2019y
2. X. I. Ibragimova va boshqalar. Pedagogik psixologiya. O'quv qo'llanma, T.- 2010y.
3. O'.Tolipov, D.Ro'zieva Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma, T., 2019y.



БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИДА МОДЕЛЛАШТИРИШ КЎНИКМАСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ТОПШИРИҚЛАРНИ ЕЧИШДАГИ АСОСИЙ ОМИЛ СИФАТИДА.

Сабиров Сардор Жуманазарович
Урганч давлат университети
мустақил тадқиқотчиси

Resume: In this article, the theoretical foundations for the formation of modeling skills in primary school students are based on the fact that from a pedagogical point of view, it is the main factor in the easy and convenient implementation of the tasks offered to students.

Таянч сўзлар: Моделлаштириш, модел, топшириқ, функция, тушунча.

Замонавий илмий билиш назариясида мақсадларга эришиш воситаси хизматини бажариб келган ва бажараётган усулларнинг бири – моделлаштиришдир. Мазкур усул замонавий фаннинг барча соҳаларида билиш усули сифатида қўлланилади. Яъни, ҳозирги вақтда моделлаштириш методининг инсон фаолиятининг ҳар қандай соҳасида у ёки бу даражада қўлланилмаслигини тасаввур қилиш қийин. Мазкур усул объектив дунёдаги нарса ва ҳодисаларни бевосита ўрганиш мумкин бўлмаган ва ўрганиш объекти мураккаб бўлган пайтларда самарали илмий восита ҳисобланади.

Л.М.Фридман [1] томонидан таълим жараёнидаги моделнинг қуйидаги функциялари ажратиб кўрсатилган:

илмий моделларни ўрганиш;

моделлар мавжуд бўлмаган ёки мавжуд моделлари ўқув жараёни учун ноқулай фанларга хос моделлар ва тушунчаларни қуриш;

ҳаракатларнинг асоси ва йўналишларини ифодаловчи моделлар доирасида ҳаракат формулалари ва алгоритмларни яратиш;

билимларни умумлаштиришга хизмат қиладиган моделлардан фойдаланиш;

тақдим этилаётган маълумотларни татқиқ этувчи тушунчаларни ўрганишга оид ишларни режалаштириш;

мантикий фикрлаш ҳамда эсда сақлаб қолишни осонлаштирадиган ўқув материални моделлаштириш.

А.Б.Воронцов ҳам моделларнинг бир қатор функцияларини ажратган:

моделнинг ўрганилаётган объектни нарса-буюм, чизма ва белгилар шаклида ифодалаш орқали улар ҳақида тасаввур ҳосил қилиш;

моделлар ва муносабатларни қайта яратиш орқали уларни табиий кўринишда ўрганиш учун шароит яратиш;

хусусий масалалар тизимини ечиш моделларини амалга ошириш орқали ўқув предметида хос ҳаракатларни бажариш.

Н.А.Терешин эса моделлаштиришнинг ўзига хос дидактик функцияларини ажратиб кўрсатган:

1. Билиш функцияси. Билиш функциясининг мақсади ўрганилаётган объектни билиш тимсолини ажратишни талаб қилади. Бундай шаклланиш мунтазам тарзда оддийдан мураккабга ўтиш жараёнида амалга ошади.

2. Ўқувчилар фаолиятини бошқариш функцияси. Моделлаштириш предметли характерга эга бўлиб, шунга кўра йўналтирувчи, назорат қилувчи, коммуникатив ҳаракатларни қамраб олади. Йўналтирувчи ҳаракат таркибига ўрганилаётган вазиятга мос келадиган чизмаларни яратиш, шунингдек, уларга қўшимча қисмларни киритиш кабилар қиради. Назорат қилувчи ҳаракатлар дарсликка киритилган чизма ва расмларни қиёсий таҳлил қилиш жараёнида йўл қўйилган камчиликларни аниқлаш имконини беради. Коммуникатив ҳаракатлар ўқувчилар эришган натижаларни аниқлаш ва уларни тадқиқ қилишдан иборат. Ўқувчилар ушбу ҳаракатларни бажариш жараёнида модел ифодалаган жараён ёки ҳодисаларни атрофдагилар, синфдошлари ёки ўз-ўзига тушунтириш, изоҳлаш кўникмасига эга бўладилар.

3. Интерпретациялаш (шарҳлаш, изоҳлаш) функцияси. Айни бир объектни турли моделлар ёрдамида ифодалашни англатади. Ушбу моделлардан ҳар бирини ўрганишга унинг интерпретацияси сифатида қаралади. Алоҳида аҳамиятга эга бўлган объектларга



турли нуктаи назардан ёндошган ҳолда уларнинг интерпретациясини бериш лозим. Чунки бундай интерпретация объектни турли томондан ёндошган ҳолда билиш имконини беради.

Н.А.Муртазина ўз тадқиқот ишида моделлаштиришнинг қуйидаги функцияларини аниқлашга ҳаракат қилган:

«Намойиш қилиш функцияси. Ўқувчи топшириқ матни билан танишиш жараёнида модел ёрдамида олган маълумотларини намойиш қилади. Бунинг натижасида ўқувчи объектнинг ички таркиби ёрдамида ташқи таркибини аниқлайди, бунда ўқувчиларга матндаги сўзлар қўмаклашади. Шунингдек, масалалар шартини тадқиқот ҳамда ўрганиш объекти сифатида намойиш қилишга эришадилар».

«Тушунтириш функцияси. Ўқувчи ўзининг илгари ўрганган тушунчалар ҳақидаги тасаввурларини ва улар орасидаги алоқадорликни аниқлашга ҳаракат қилади. Бу бошланғич синф ўқувчиларининг бир типдаги топшириқларни ечишга ўрганиб қолишларини бартараф этиб, турли-туман масалаларни ечишга оид тажрибаларини кенгайтиришга хизмат қилади».

«Башорат қилиш функцияси. Ўқувчи масалалар ҳақидаги ўзлаштирган билимларини умумлаштиради ва баҳолайди, масаланинг шартидан тўплаш ва қайта шакллантириш воситаси сифатида фойдаланади. Бу турлича таркибдаги моделларга таянган ҳолда изланиш ва мақбул ечимларни топиш учун имконият яратади».

«Эвристик функция. Модел устидаги фаол фикрий амалий фаолият натижасида ўқувчилар топшириқларни бажариш учун илгари етарли бўлмаган усуллар ва маълумотларни излаб топадилар. Бунинг натижасида ўқувчилар моделлаштиришнинг янги, бетакрор усуллари ва йўллари излаб топадилар. Натижада бошланғич синф ўқувчиларида шу турдаги бошқа топшириқларни бажариш имконияти туғилади. Шунингдек, бошланғич синф ўқувчиларида топшириқларнинг дастлабки шартига асосланган ҳолда уни бажаришга оид умумий қўникмалар шаклланади».

Моделлаштириш жараёнида қўлланиладиган қўникмалар мавжмуи топшириқларни ечиш жараёнининг ички таркибий тузилишини ифодалайди. Ушбу мажмуанинг асосий бирлигини модел ташкил этади. Моделлар ўқувчиларнинг фикрий ҳамда амалий фаолиятлари маҳсулидир. Моделлар қўникмалар мажмуининг алоҳида ажратиб олинган таркибий қисми ҳисобланади. У ўқувчиларнинг топшириқларни ечишдаги қийинчиликларни баратараф этишларига қўмаклашади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Фридман Л.М. Наглядность и моделирование в обучении/ Л.М. Фридман - М.: Знание, 1984. - с.25 - 55.
2. Бошланғич таълим концепцияси. // тузувчилар:п.ф.д, проф. Р.Г.Сафарова, п.ф.д., проф. Б.С.Абдуллаева, физ.-мат.ф.н. А.Д.Баҳромов, Н.Т.Ахмедова, Ф.И.Юсупова.- Т.: РТМ, 2015 йил.
3. Ходжаев Б.Х., Уразова М.Б. Интеллект-карты как фактор развития профессиональной компетентности будущих учителей: Материалы Международной научно-практической конференции. – Санкт-Петербург: Санкт-Петербургский государственный университет, 2015. – С. 137–139.

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: ИННОВАЦИЯ, ФАН ВА ТАЪЛИМ 10-ҚИСМ

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 28.02.2023

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000